

RASMIY MUNOSABAT

Ijtimoiy tarmoqlarda Farg'ona shahar "Oqariq" MFY hududidagi yo'llarning nosozligi yuzasidan murojaat tarqaldi. Mazkur murojaat shahar hokimligi va qurilish tashkiloti mutaxassislari ishtirokida o'rganildi.

Ma'lumki, joriy yilda shahrimizdagi "Zarbdor" va "Oqariq" mahallalarida "Obod mahalla" Dasturi asosida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, ayni kunlarda "Oqariq" MFYlarda "Termo servis intel" XK tomonidan ichimlik va oqava suvi tarmoqlari tortilmoqda. Mazkur ishlar uchun respublika byudjetidan 5 mlrd. so'mga yaqin mablag' ajratilgan bo'lib, hududda jami 3000 metr ichimlik suvi va 6300 metr kanalizatsiya tarmog'i tortilishi belgilangan. Qurilish ishlarini joriy yilning 1 noyabrь sanasiga qadar yakunlash rejalashtirilgan. Tarmoq tortish ishlari yakunlangandan so'ng, ko'chalarni asfalbtash ishlari olib boriladi.

Shahrimiz aholi va mehmonlaridan qurilish ishlari olib borilayotgan hududlarda yo'l belgilari va texnika xavfsizligi qoidalariga rioxat etishlarini so'rab qolamiz.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-21 10:46:10